

AMIR TEMUR SIYMOSI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Kegeyli tumani 11-son DMTT psixologi
Yo‘ldosboyeva Gulmira Jalgasboyevna*

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarni Amir Temur siymosi orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning usullari va vositalari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlari: Ilk Qadam, Vatanparvarlik, Insonparvarlik, Qahramonlik ideali, “Men” konsepsiyasi

METHODS OF FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH THE FIGURE OF AMIR TEMUR

Annotation

The article provides a scientific and theoretical analysis of the methods and means of forming a sense of patriotism in preschool children through the figure of Amir Temur.

Keywords: First Step, Patriotism, Humanism, Ideal of Heroism, Concept of "I"

Bugungi kunda tariximiz, milliy ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni chuqur anlash, ajdodlarimiz tajribalarini teran idrok etish va buyuk allomalarimiz tomonidan bizgacha yetib kelgan ma’naviy merosimizni yosh avlod ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu vazifani amalga oshirishni maktabgacha tarbiya yosh davridan boshlasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini milliy ma’naviyatimiz sarchashmalari orqali shakllantirmoq samarali deb o‘ylaymiz.

Bizga ma’lumki, respublikamizning birinchi Prezidenti Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan YUNESKO Bosh konferensiyasining jahon jamoatchiligi tomonidan keng nishonlanishi qaroriga e’tiboran xalqaro va respublika miqyosida o‘tkazilganligini hisobga olib, O‘zbekiston fuqarolarining, yosh avlodning milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg‘ularini yanada rivojlantirish maqsadida 1996 yilni —Amir Temur yili deb nomlaganliklari fikrimizga yorqin misol bo‘ladi.

Darhaqiqat, biz vatanparvarlik tuyg‘ularini yosh avlodga shakllantirishni milliy merosimiz orqali amalga oshirishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasining ilk va

maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga asosida ishlab chiqilgan "Ilk Qadam" Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturida ham bolalarning Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv hamda amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanishlari, anglashlariga alohida e'tibor berilgan. Bunda:

- Yillik mavsumiy rejada fevral —G'aroyib dunyo oyining 3-haftasidan boshlab katta va tayyorlov guruhlarida —O'zbekistonning buyuk arboblari bo'limida buyuk siymolar va buyuk insonlar hamda mashhur sarkardalar haqida ma'lumot berish ko'rsatib berilgan. Ushbu dasturda maktabgacha yoshdagi bolalarning millat tariximizga qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish maqsadida 5-6 yoshdan boshlab Amir Temur bobomiz mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi ekanligi va shu bilan birga Harbiy qo'shinlar va ularning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish. Vatanga muhabbat va uni ko'z qorachig'idek saqlash hissini tarbiyalash maqsadida ma'lumot berilishi ko'rsatilgan.

Sohibqironni mashhur sarkarda sifatida tanishtirishdan ilgari uning siymosi haqida tushuncha berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning siymosi haqida bir qancha asarlarda mualliflar tomonidan turlicha ta'riflar berilgan.

Masalan, Ibn Arabshohning —Amir Temur tarixi asarida Amir Temur bobomizning insoniy qiyofasi haqida —qaddi baland, uzun bo'yli, tik qomatli, go'yo u qadimiy pahlavonlar avlodlaridan bo'lib, keng peshonali, katta boshli, g'oyatda kuchli va salobatli, rangi oq-qizil yuzli, lekin dog'siz, bug'doy rang emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomatli kamolga yetgan, sersoqol, ikki ko'zi bamisoli sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'gon ovozli edi; u o'limdan qo'rqqan, yoshi saksonga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi jiz (qalin) yosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onni yoqtirmas, o'yin-kulgi, ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki sadoqat unga yoqar edi: «u (bo'lib) o'tgan ishga aziyat chekmas» va o'ziga hosil bo'ladigan (yutuq)dan shodlanmas edi, degan fikrlar bildirilgan.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan ma'lumki, Temur bobomiz jismonan sog'lom, keng yelkali, kelishgan qomatli, tog'ni ura talqon qilgudek kuchga ega bo'lgan, yurganda qadamidan yer titragan, so'zlaganda so'zlaridan o't chaqnagan, yuzlaridan nur yog'ilgan, og'ir, bosiq, jiddiy, erishgan yutuqlaridan havolanmaydigan inson bo'lgan. Bu fikrlar sohibqironning kuchli psixologik xarakter egasi ekanligidan darak beradi.

Temur bobomizning bolalik va o'smirlik yillari jang, kurash va ov maydonlarida o'tgan. O'sha vaqtdagi siyosiy vaziyat va muhit yosh Temurni metin irodali va o'z so'zidan qaytmaydigan qilib tarbiyalagan.—Bolalikdan kurash, ov hadisini olgan Amir

Temur, akademik V.V.Bartold aytganidek, valomatlik- jangovorlik ruhida tarbiyalangan edi. Oriyatni qo‘ldan berish uning uchun o‘lim bilan barobar edi.

Bayon etilgan ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, Bobomiz jismonan sog‘lom, ma‘nan yetuk, ruhan tetik, aqlan barkamol, or-nomusli kishi bo‘lgan. U sog‘lomlikni nafaqat jismoniy kuch-quvvatda, balki olijanob insoniy fazilatlar uyg‘unligiga erishmoq ekanligini yoshligidanoq anglagan. Padari buzrukvori Muhammad Tarag‘aydan olgan saboqlarni bir umr u uchun dasturlamal bo‘lgan. Muhammad Tarag‘ay o‘z farzandini mardlik va farosatlik, qattiqqo‘llik va mehr-oqibat ruhida voyaga yetkazgan. Agar Amir Temur buyuk saltanatga asos solgan bo‘lsa, bu sharafiga mana shu yuksak tarbiya oqibatida erishgan.

Biz maktabgacha yoshdagi bolalarga bolalar ilk yosh guruhlarida Amir Temur siymosi bilan tanishtirisak, keying yosh guruhlarida uning oilaviy tarbiyasi va yoshlik yillari hamda farzand-nabiralarini tarbiyalash haqida ma‘lumot berib borsak, katta va tayyorlov guruhlarida esa davlat boshqaruvi va —Temur tuzuklari xususida ma‘lumotlar ketma-ketligini ta‘milasak yaxshi samara beradi.

Masalan, sohibqiron farzandlarida uch xislat mujassam bo‘lishini istagan. Eng avvalo, insonparvarlik, so‘ng mushohadalik va nihoyat, oqibatlik-bosiqlik. Insonparvar odamgina saxiy bo‘lishi mumkinligi, mushohadali, bosiq odamgina jan-gu jadalda xatoga yo‘l qo‘ymasligi, saltanatni ham boshqara olishi, kimki jasur bo‘lsa-yu, insonparvar bo‘lmasa, jismonan baquvvat bo‘lsa-yu, mushohadalik bo‘lmasa, dono bo‘lsa-yu, bosiqlik bo‘lmasa, unday odam komil inson bo‘lolmasligi, unday odam boshqalarni ham, o‘ziniyam halok etishi, kimki raqibi bilan olishgandayam insonparvarlikni unutmasa u albatta yengishi, "Siyosatda maslaaat, mulohazakorlik, o‘ylab ish qilish, qilich kuchidan o‘n karra foydaliroqdir", deb ta‘kidlagan.

Yuqorida bayon etilgan fikrlardan kelib chiqib biz tarbiyachi va ota-onalarga quyidagilarni tavsiya etamiz:

- Bobomiz bilan tanishtirishni ilk bolalik davridan boshlang;
- bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga oling;
- ma‘lumot berish jarayonida Amir Temur rasmidan, fotolavhadan foydalaning;
- taqdimotlar, videolavha hamda kinofilmlar namoyish eting.
- multfilmlar, sahna asarlari, qo‘g‘irchoq teatrlarining namoyishlari orqali bolalarda vatanga va xaqliga bo‘lgan insoniylik munosabatlarini shakllantirish muhimdir.

Albatta Sohibqiron Amir Temur bobomizning hayoti yo‘i benihoya mashaqqatli va og‘ir bo‘lgan. Har bir bog‘cha yoshidagi bollarda mana shu suronli yo‘lning mashaqqati va og‘ir mehnatini tushintirilsa ularda hech bir narsaga osonlik bilan erishib bo‘lmasligi, agar inson biror-bir narsaga erishmoqchi bo‘lsa, faqat mehnat orqali halollik orqali va adolat bilan erishish kerak ekanligini anglab yetuvchi hissiyot ko‘ninmasi shakllandai.

Tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchining xarakteridan kelib chiqib ular bilan Amir Temur bobomizning siymosi orqali ko'rsatib o'tilgan xislatlarni va xarakterni o'rgatishlari lozim bo'ladi. Inson shaxs sifatida kamolga yetar ekan albatta u hayot yo'lida kimnidir o'zining "Qahramonlik ideali" deb biladi va shu idealga erishish uchun o'zida mana shu xarkatni va hissiyotni shakllantiruvchi tushunchalarni bila boshlaydi. "Qahramonlik ideali"da bola go'yoki o'z "Men" konsepsiyasida ham anglab yetishi mumkin, yani Amir Temur bobomizdan xam hatto o'zini yuqori tutishi mumkin. Bu esa bola shaxsida "Kibr" tuyg'usini shakllantirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda bog'cha tarbiyalanuvchilarini jamiyatga moslashishida albatta oila a'zolari va bog'cha xodimlarining ko'rsatmasi va yo'l-yo'riqlari katta rol o'ynaydi. Bunda bolalar o'z ajdodlarining kimligi va ular shaxsining ulug'ligi haqida yetarlicha tasavvurga va tushinchaga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Buyuk Sohibqiron haqida yosh avlodda tushuncha-tasavvur shakllantirishni ilk yoshdan boshlash yaxshi samara beradi va shu bilan birga ularda biz yashaydigan zamindan ana shunday jahongir o'tganligi va u sog'lom-baqquvvat bo'lib o'z xalqini ozod-hur yashashi, vatanini gullab-yashnashi uchun bor kuchi va nafaqat kuchi balki jonini ham fido qilishga tayyor inson bo'lganligini tushuntirib o'tilsa maktabgacha yoshdagi bolalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda yaxshi samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO Amir Temur jahon tarixida. To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri. Sharq nashriyoti Toshkent-2001 yil, 35-bet
2. «Ilk qadam o'quv dasturi 2018 yil 7-bet
3. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xoritasida. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi Bo'riboy Axmedovning ilmiy tahriri ostida.- T.: — O'qituvchi 1996 yil, 25-bet.